

## CHINOR HAQIDA MALUMOT

**Jo'raboyev Valijon Muzaffar o'g'li**

+998934512602joraboyevvalijon4@gmail.com

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish inistituti

Agrologistika va biznes fakilteti

O'rmonchilik talim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Safarov Iskandar Sayfiddin o'g'li**

+998908979467safaroviskandar985@gmail.com

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish inistitute

Agrologistika va biznes fakulteti

O'rmonchilik talim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Boymatova Ro'zigul Husan qizi**

+998932519903muhiddinostanaqulov76@gmail.com

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish inistituti

Agrologistika va biznes fakilteti

O'rmonchilik talim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Chinor (lotincha platanus)ushbu oilaga faqat bir turkum –Chinor (platanus l.) turkumidan iborat bo'lib ,uninig vakillari yopiq urug'lilarning eng qadimgi turlaridan hisoblanadi. Chinor tez o'sishi bilan ajralib turadi , 30-40 m balandlikkacha o'sib tekis rivojlangan tanaga ega .Barglari yirik , shakliga ko'ra zarang barglariga o'xshash bo'ladi . chinor bir uyli . mevalari dumaloq sharchalar sentabr – oktabrda pishub yetiladi va bahorgacha daraxtda saqalan

Ushbu maqolada siz chinorni turlari ko'payishi hamda mevalari haqida bilib olishingiz mumkun.

**Kalit so'zlar;** Sharq chinori,G'arb chinori,Zarang bargli chinor,ko'payishi, platanus,Mevasi, tarqalish oreallari , balandligi , umir ko'rishi.

**Biologik klassifikatsiyasi:** organizmlarni tip yoki tur kabi guruhlariga ajratish metodidir. Bunday guruhlar **takson** deb ataladi. Biologik klassifikatsiya taksonomiyaning bir qismidir. Zamonaviy biologik klassifikatsiya turlarni fizik xarakteristikalariga ko'ra guruhlariga ajratgan Carolus Linnaeus ishlaridan boshlandi. Ushbu guruhlar keyinchalik Charles Darwin aniqlagan umumiy ajdod prinsipiga mos ravishda qayta ko'rib chiqilgan. XX asr oxirlarida kladistika metodi paydo bo'lishi bilan biologiyada organizmlarni faqatgina nasldorlik asosida guruhlovchi filogenetik taksonomiya qo'llanila boshlandi.[1] Ma'lumot sifatida DNK qatorlarini ishlatuvchi molekulari filogenetika ham taksonlarni qayta ko'rib chiqishga yordam qildi va shu ishda davom etmoqda. Chinor urug'ini ekib, qalamchasidan va qalamchasi bachkilaridan ko'paytiriladi. Chinorning yog'ochligi, pishiq, mebel sohasida qadrlanadi. Uning yog'ochidan o'zbek me'morligida qadimdan foydalanib kelinadi .

**Sharq chinori (*platanus orientalis* L.**bu chinor turi chinordoshlar oilasining eng muhim turlaridan biri hisoblanadi .1753-yilda buyuk botanik olim K.Linney birinchi bor ikkita chinor turini tavsiflab bergan.

Keyingin yillarda sharq chinorining oreali kengayishi kuzatilmoqda. Chunki u ko'plab madaniy holda o'stirilmoqda.



O'zbekistonda yovvoyi chinor qashqadaryo viloyati palangdaryo havzasida qayd etilgan .

Odatda, yakka-yakka, ba`zan kichik chinorzorlar tashkil qiladi. Urug`idan va vegetative yo`l bilan ko`payadi (ildiz va bachkisidan). Uning turli ehtiyojlar uchun ko`plab kesilishi natijasida soni qisqarib bormoqda. Sharq chinori qadimdan manzarali daraxt sifatida barcha sug`oriladigan yerlarda ekib kelinadi. O`zbekiston respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan.



### *Sharq chinori*

Chinor urug'larining unishi tuproq namligi va haroratga bog'liq. Urug'pallalari cho'zinchoq birinchi bargchalari chekkalari tishchali, navbat bilan joylashgan chinor turlari meva bandidagi sharsimon mevalar soniga ko'ra ajratiladi. 1-3 ta meva bo'lsa zarang bargli chinor, 1 ta meva bo'lsa g'rab chinori, 3-7 ta meva bo'lsa sharq chinori hisoblandi. Bo'yining uzunligi 30 m ga yetadi, keng shox-shabbali daraxt. Bargi panjasimon qirqilgan, 5-7 bo'lakli, eni 12-18 sm bo'ladi. Gullari bir jinsli bo'lib, sharsimon to'pgulga yig'ilgan. Mevali kallakchasi 2-7 tadan, diametric 2-5 sm atrofida. Mevasi yog'ochsimon, tumshuqchali, yopiq qalin tuklar bilan qoplangan. Aprel oyida gullab, mevasi avgust- sentabrda yetiladi. Sharq chinori O'zbekistonda Hisor tizmasida, Sangardak, To'polon, Qashqadaryo, Obizarang daryolarining havzalarida tarqalgan (Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari). Bundan tashqari, O'rtayer dengizida, Bolqon yarim orolidan Himolaygacha tarqalgan. U asosan, tog'larning o'rta qismida, daryo bo'ylarida, buloq atroflarida, toshloqlarda o'sadi.

**G'arb chinori**(*platanus occidentalis*) Shimoliy Amerikaning Atlantika qismida keng tarqalgan, kichik o'rmonlar hosil qiladi. Rossiyada 1800 yillardan buyon o'stirilmoqda, 30 – 40 m diametrga ega, o'tkir uchli manzarali barglari daraxtda uzoq saqlanadi. Ko'kalamzorlashtirishda istiqbolli tur hisoblanadi, Odessa shaxrini Janubiy Ukraina va Qrimda ko'plab ekiladi, sovuqqa o'rtacha chidamli. O'rmon

melioratsiyasida ham keng foydalaniladi Ushbu turlardan tashqari O‘zbekiston sharoitlariga **zarangbargli chinor** (*Platanus acerifolia*) turi introduksiya qilingan va ko‘kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Сравнительный анализ семейства Айктовандошки, занесенного в «Красную книгу» Республики Узбекистан (2006-2019 гг.)2023 / Мадинахан Абдухалилова
- Сравнительный анализ семейства бурчагдовых, занесенных в «Красную книгу» Республики Узбекистан (2006-2019 гг.)
  - 2023 / М.А.Абдухалилова, П.А.То'раева, М.Х.Ахмадалиева
- ИНТРОДУКЦИЯ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ, ВКЛЮЧЕННЫХ В «КРАСНУЮ КНИГУ» РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, В ТАШКЕНТСКИЙ БОТАНИЧЕСКИЙ САД
  - 2022 / Темиров Э.Е., Рахимова Н.К., Рахматиллаев М.С.
- ХАРАКТЕРИСТИКА ТРЕХ ОДЕЖДНЫХ ЗАВОДОВ НУРОТИНСКОГО РАЙОНА
  - 2022 / Давронова З.З., Ш. И. Кадырова
- ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ, ВКЛЮЧЕННЫЕ В КРАСНУЮ КНИГУ, И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В МЕДИЦИНЕ.
  - 2022 / Исаков Т., Эсонова И.